O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI REKTORI
BUYRUG‘I

14.07.2026-yil **№ 185-A** **Denov tumani**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2026-yil 30-iyundagi 46-q/q-sonli hamda “O‘zmilliybank” AJning 2026-yil 30 -iyundagi 3-sonli qo‘shma qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 1-iyundagi “Tadbirkorlik loyihalarini qo‘llab-quvvatlash orqali yoshlar bandligini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-210-son qaroridagi belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash, hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 30-iyundagi 46-q/q-sonli hamda “O‘zmilliybank” AJning 2026-yil 30-iyundagi 3-sonli qo‘shma qarori ijrosini ta’minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 30-iyundagi 46-q/q-sonli hamda “O‘zmilliybank” AJning 2026-yil 30-iyundagi 3 -sonli “Oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarinikasbga tayyorlash jarayonlarini tashkil qilish va moliyalashtiri chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qo‘shma qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 30-iyundagi 46-q/q-sonli hamda “O‘zmilliybank” AJning 2026-yil 30-iyundagi 3-sonli qo‘shma qarori bilan tasdiqlangan “**Mening birinchi kasbim**” dasturi doirasida bitiruvchi talabalarning amaliyotlarini moliyalashtirish tartibi ijro uchun qabul qilinsin.

3. Institutda “Talabalarni kasbga tayyorlash va kasbiy amaliyotini tashkil etish” yo‘nalishida tanlovlar tashkil etish komissiyasi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Komissiyaga tasdiqlangan tartib bo‘yicha faoliyatini amalga oshirish vazifalari yuklatilsin.

4. O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor **U.Bo‘tayev**, fakultet dekanlari **R.Salomova, M.Musurmankulova, B.Iraliyev, M.Toshboboyev**lar zimmasiga:

“**Mening birinchi kasbim**” dasturi doirasida bitiruvchi talabalarning amaliyotlarini moliyalashtirish tartibidagi belgilangan vazifalarni to‘laqonli amalga oshirish yuzasidan zarur choralarni ko‘rish;

TDQ2522

IJRO.GOV.UZ tizimi orqali ERI bilan tasdiqlangan, Hujjat kodi: WK15171528

“Talabalarni kasbga tayyorlash va kasbiy amaliyotini tashkil etish” yo‘nalishida tanlovlar (keyingl o rinlarda — Tanlov) tashkil etish;

Tartibning mazmun-mohiyatini bitiruvchi talabalarga yetkazish;

salohiyatli ish beruvchi tashkilotlar, shu jumladan, yirik korxonalaming oliy ma’lumotli mutaxassislarga ehtiyojini aniqlash va mutaxassislarga qo‘yiladigan talablarni shakllantirib borish;

kadrlarning asosiy iste’molchilari bo‘lgan ish beruvchi korxona va tashkilotlar bilan tanlovlarda ishtirok etish istagidagi talabalani kelgusida ish bilan ta'minlanishini nazarda tutuvchi amaliyotlarlni tashkil etish bo‘yicha dastlabki shartnomalarni rasmiylashtirish;

tanlovlarda ishtirok etish istagidagi talabalar bo‘yicha talab etilgan hujjatlarni rasmiylashtirish va tanlov komissiyasiga taqdim etilishini ta’minlash;

tanlovlar natijalariga ko‘ra ijobiy baholangan talabalarning haq to‘lanadigan amaliyotlarini tashkil etish bo‘yicha oliy ta'lim tashkiloti, ish beruvchi tashkilotlar va talabalar o‘rtasidagi uch tomonlama kelishuv shartnomalarini rasmiylashtirish. Bunda talabalarning oliy ta'lim muassasasini tamomlagandan keyin shartnoma rasmiylashtirilgan korxona va tashkilotlarda ishga qabul qilinishini ta’minlash;

belgilangan vazifalar yuzasidan doimiy monitoring yuritish hamda tahliliy ma'lumotlarni tayyorlab borish;

amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma’lumotlarni har chorak yakuniga qadar komissiyaga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

5. Talabalar amaliyoti bo‘limi boshlig‘i **D.Bekmurotov** talabalarning haq to‘lanadigan amaliyotlarini tashkil etish bo‘yicha institut, ish beruvchi tashkilotlar va talabalar o‘rtasidagi uch tomonlama kelishuv shartnomalarini va dastlabki shartnomalarning namunadagi nusxalarini fakultet dekanlarga yetkazsin.

6. Institutda “Kelajakka qadam” markazi bo‘yicha mas’ul xodimi, komissiya kotibi Sh.Jo‘raqulov zimmasiga;

“Talabalarni kasbga tayyorlash va kasbiy amaliyotini tashkil etish” tanlovida ishtirok etish istagidagi talabalarning hujjatlarini komissiyaga taqdim etish;

belgilangan vazifalar yuzasidan doimiy monitoring yuritish hamda tahliliy ma'lumotlar tayyorlab borish amalga oshirilgan ishlar yuzasldan belgilangan shaklddgi ma’lumotlarni vazirlikning (career.edu.uz) maxsus elektron platformasi orqali taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

7. Mazkur buyruq ijrosining nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Asos: *O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 30-iyundagi 46-q/q-sonli hamda “O‘zmilliybank” AJning 2026-yil 30-iyundagi 3-sonli qo‘shma qarori*

Rektor **O.Ruziyev**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
*rektorining 2026-yil 14-iyuldagi **185-A-sonli***
buyrug‘iga ilova

Denov tadbirkorlik vapedagogika instituti
“Talabalarni kasbga tayyorlash va kasbiy amaliyotini tashkil etish”
tanlov komissiyasi
TARKIBI

1. **O.A.Ruziyev** -**Rektor, komissiya raisi**;
2. U.Bo‘tayev -O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor komissiya raisining o‘rinbosari;
3. U.Djurayev - O‘zmilliybank”AJ Denov filiali xodimi, komissiya a’zosi
4. Sh.Jo‘raqulov - Kelajakka qadam” markazi bo‘yicha mas’ul xodimi komissiya kotibi;
5. M.Toshboboyev -“Tadbirkorlik va boshqaruv” fakulteti dekani, komissiya a’zosi;
6. B.Iraliyev -“Aniq va tabiiy fanlar” fakulteti dekani, komissiya a’zosi;
7. R.Salomova -Pedagogika fakultet dekani, komissiya a’zosi;
8. M.Musurmankulova -Filologiya fakultet dekani, komissiya a’zosi;
9. Lavozimiga ko‘ra - ish beruvchi korxona va tashkilotlar mas’ul xodimlari, komissiya a’zosi.

TDQ2522